




**KATTA YOSHLI  
BOSHPANA  
IZLOVCHILAR UCHUN  
BOSHLANG'ICH  
QO'LLANMA**



# KIRISH

Agar Nyu York shahrida boshpana izlayotgan bo'lsangiz va favqulodda boshpana zarur bo'lsa, boshqa joy topish uchun barcha bosqichlarni bajarishingiz kerak.

Bu varaqaga boshqa joy topishga yordam beradigan bir qancha g'oyalar bilan tanishtiradi. U, shuningdek, sizga zarur bo'lishi mumkin bo'lgan xizmatlarni olish uchun usullarni taqdim etadi.

Agar sizda boshqa joy topish va xizmatlardan foydalanishga xalaqit beradigan nogironligingiz bo'lsa, boshpana bo'yicha xodim bilan maslahatlashing.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	2
311 .....	3
TA'LIM .....	3
TRANSPORT.....	4
SOG'LIQNI SAQLASH.....	5
ISH VA MOLIYA .....	8
IMMIGRATSİYADA HUQUQIY YORDAM .....	9
UY-JOY.....	10
ELCHIXONA YOKI KONSULLIGINGIZNI TOPISH .....	12
IMMIGRATSİYA MASALALARI BO'YICHA MER IDORASI (THE MAYOR'S OFFICE OF IMMIGRANT AFFAIRS, MOIA).....	12
LGBTQ+ RESURS QO'LLANMASI .....	12
OILADAGI VA JINSGA QARATILGAN ZO'RAVONLIKKA BARHAM BERISH BO'YICHA MER IDORASI (MAYOR'S OFFICE TO END DOMESTIC AND GENDER-BASED VIOLENCE, ENDGBV) .....	12
NYU YORK SHAHRI INSON HUQUQLARI BO'YICHA KOMİSSIYA:.....	12
JAMOAT KUTUBXONALARI .....	13

# 311

## **Immigrantlar uchun shahar resurslari**

Nyu York shahri barcha rezidentlarini qo'llab-quvvatlaydi. Hamma, shu jumladan, hujjatsiz immigrantlar ham aksariyat shahar xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Bunday xizmatlarga maktabda o'qish yoki tibbiy xizmatdan foydalanish kiradi.

Bu yerda shahar xizmatlari haqida bilib oling: <https://www.nyc.gov/site/immigrants/city-services/basic-care.page>.

Nyu York shahri hukumat xizmatlaridan qanday foydalanish borasida 311 raqami yoki <https://portal.311.nyc.gov/manziliga> murojaat qiling.

## **TA'LIM**

4-21 yoshli barcha NYC bolalari davlat maktablarida o'qishlari mumkin. Ro'yxatdan o'tish uchun 311 raqamiga murojaat qiling yoki <https://www.schools.nyc.gov/enrollment/enrollment-help/family-welcome-centers> saytiga kiring.

Hamjamiyat asosidagi tashkilotlar katta yoshlilar va mакtabga bormaydigan yoshlar uchun shahar bo'ylab savodxonlik, trening va Umumiy ta'lim rivojlanishi (General Educational Development, GED) dasturlarini taklif qiladi. Cheklangan o'qish, yozish, matematika va ingliz tili ko'nikmalariga ega katta yoshlilar va mакtabdan tashqaridagi yoshlar uchun ko'rsatmalar taqdim etiladi. Dasturlar boshlang'ich ta'lim, GEDga tayyorlash va boshqa tilda so'zlashuvchilar uchun ingliz tilini o'z ichiga oladi Yordam uchun 311 yoki 212-639-9675 raqamiga telefon qiling.

**We Speak NYC** ingliz tilini o'rganuvchilar uchun bepul ingliz tilida suhbat darslarini tadqim etadi. Ko'ngillilar bu darslarni Emmy Award mukofoti sovrinini olgan ta'lim teleserailari, "We Speak NYC" materiallaridan foydalangan holda olib boradi. Ular har bir videoga mos ta'lim materiallaridan ham foydalanadi.

Bu videolar Nyu York shahrida o'z yo'llini topgan immigrantlarning hayotiy hikoyalariga asoslanib, hukumat xizmatlari haqida foydali ma'lumotlarni taqdim etadi. Siz yashaydigan hududda qaysi tashkilotlar **We Speak NYC** darslarini taklif etayotganini aniqlash uchun 212-788-7654 raqamidagi Immigratsiya masalalari bo'yicha mer idorasiga (Mayor's Office of Immigrant Affairs) bog'laning.

**Cell-Ed** foydalanuvchilar uchun istalgan vaqtida va istalgan joyda kirish mumkin bo'lgan bepul mobil ingliz tili darslari va ko'nikmalarni shakllantirish darslarini taklif qiladi. Mobil telefondan Cell-Ed ilovasiga kiring.

Cell-Ed App dasturini yuklab oling yoki +1-866-425-2355 raqamiga telefon qiling; PIN kriting: 1788 yoki Kompyuter orqali: <https://learn.cell-ed.com/#/> yoki WhatsApp, +1-818-423-5533 raqamiga START (BOSHLASH) xabarini yuboring. Yordam kerakmi? Cell-Ed o'quv videosini bu yerda tomosha qiling: <https://www.youtube.com/watch?v=ZKsVxtwgibU>.

# TRANSPORT

## NYC ADOLATLI NARXLARI (FAIR FARES NYC)

Kam daromadli Nyu York aholisi transport xarajatlarini boshqarishga yordam berish uchun metro va ayrim avtobus yo'l haqidan 50% chegirma olishi mumkin.

Agar 18 – 64 yosh orasida bo'lsangiz, NYC dasturi orqali chegirmal MetroCard olmasangiz va xo'jalik daromadingiz quyidagi limitlardan past bo'lsa:

- 1 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 1 506,00\$
- 2 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 2 044,00\$
- 3 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 2 582,00\$
- 4 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 3 120,00\$
- 5 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 3 658,00\$
- 6 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 4 196,00\$
- 7 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 4 734,00\$
- 8 kishidan iborat xo'jalik uchun maksimal oylik daromad 5 272,00\$

Qo'shimcha ma'lumotlar va boshqa maqbullik talablarini tasdiqlash uchun 311 raqamiga murojaat qiling yoki <https://www.nyc.gov/site/fairfares/index.page> manziliga kiring.

## NYU YORKDA AVTOMOBIL BOSHQARISH

Nyu York shtatida avtomobil yoki mototsikl boshqarish uchun kamida 16 yosh va yaroqli Nyu York shtatining haydovchilik guvohnomasi yoki o'quvchi ruxsatnomasiga yoki boshqa shtat yoki mamlakat tomonidan berilgan haydovchilik guvohnomasi yoki ruxsatnomaga ega bo'lishingiz kerak.

Agar sizda boshqa mamlakatning haydovchilik guvohnomasi bo'lsa, bu yerda avtomobil haydash uchun Nyu York shtati guvohnomasiga ega bo'lishingiz kerak. Agar Nyu York shtati rezidentiga aylansangiz, Nyu York haydovchilik guvohnomasiga ariza topshirishingiz mumkin.

Ko'proq ma'lumot uchun quyidagi manzilga kiring:<https://dmv.ny.gov/driver-licenses>.

# **SOG‘LIQNI SAQLASH**

## **SOG‘LIQNI SAQLASH XIZMATLARIDAN FOYDALANISH**

NYC Care immigratsion maqomi va to‘lash imkoniyatidan qat‘i nazar nyu-yorkliklar uchun sog‘liqni saqlashni kafolatlash maqsadidagi mamlakatning eng yirik va eng qamrovi keng tashabbusdir.

NYC Care federal ko‘rsatmalarga muvofiq tibbiy sug‘urta ololmaydigan Nyu York aholisi uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish dasturi. NYC Care NYC Health + Hospitals tomonidan taklif qilinadigan arzon va bepul xizmatlarni kafolatlaydi.

Tibbiy sug‘urtadan foydalanish imkoniyatiga ega Nyu York aholisi uchun shaharning ijtimoiy salomatlik rejasiga <https://metropplus.org/> taklif qilinadi.

### **Ro‘yxatdan o‘tish usullari**

- NYC Health + Hospitals Moliyaviy maslahatchi bilan ko‘rishish
- MetroPlus vakili bilan ko‘rishish yoki telefon qilish
- Hamjamiyat hamkorlarini toping: <https://www.nyccare.nyc/community-based-organization/>
- Batafsil ma’lumot uchun 1-646-692-2273 raqamiga telefon qiling

## **NYC HEALTH + HOSPITALS**

NYC Health + Hospitals shahar bo‘ylab manzillariga ega. Ular keng qamrovli shaxsiy va virtual xizmatlarni ko‘rsatadi, jumladan:

- birlamchi tibbiy yordam,
- shoshilinch tibbiy yordam,
- ruhiy salomatlik va
- ixtisoslashgan xizmatlar.

Qabulga yozilish uchun 1-844-692-4692 raqamiga murojaat qiling.

### **Bronx**

NYC Health + Hospitals/Jacobi  
1400 Pelham Parkway South, Bronx, NY 10461

NYC Health + Hospitals/Lincoln  
234 East 149th Street, Bronx, NY 10451

NYC Health + Hospitals/North Central Bronx  
3424 Kossuth Avenue, Bronx, NY 10467

## **Brooklyn**

NYC Health + Hospitals/Kings County  
451 Clarkson Avenue, Brooklyn, New York 11203

NYC Health + Hospitals/South Brooklyn Health, Ruth Bader Ginsburg Hospital  
2601 Ocean Parkway, Brooklyn, NY 11235

NYC Health + Hospitals/Woodhull  
760 Broadway, Brooklyn, New York 11206

## **Manhattan**

NYC Health + Hospitals/Bellevue  
462 First Avenue, New York, NY 10016

NYC Health + Hospitals/Harlem  
506 Lenox Avenue, New York, NY 10037

NYC Health + Hospitals/Metropolitan  
1901 First Avenue, New York, NY 10029

## **Queens**

NYC Health + Hospitals/Elmhurst  
79-01 Broadway, Elmhurst, New York 11373

NYC Health + Hospitals/Queens  
82-68 164<sup>th</sup> Street, Queens, New York 11432

# **RUHIY SALOMATLIK XIZMATLARI**

**NYC 988** bepul, maxfiy ruhiy salomatlik bo'yicha yordam berish vositangiz. Maslahatchi bilan telefon, sms yoki chat orqali bog'laning va ruhiy salomatlik va giyohvand moddalar ta'siridan xalos qilish xizmatlaridan foydalaning. Xizmat 200 dan ortiq tilda taqdim etiladi.

Kunning istalgan qismida deyarli barcha tillarda sizga zarur yordam olish uchun telefon qiling yoki **NYC 988** raqamiga xabar yozing.

# **REPRODUKTIV SOG'LIQNI SAQLASH**

Agar homilador bo'lsangiz, Nyu York shahrida bepul va maxfiy jinsiy salomatlik xizmatlari va tibbiy sug'urta dasturlari mavjud. Nyu Yorkda, shuningdek, homiladorlikka aloqador holatlarda yordam beradigan klinikalar mavjud.

Sog'lioni saqlash departamentining Hamshira-oila hamkorligi (Health Department's Nurse-Family Partnership) bo'limi yosh onalarni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan hamshiralalar bilan

bog'lashi mumkin. Bu hamshiralar oilangiz salomatligini saqlashda yordam berish uchun homiladorlik davringizda va chaqaloq ikkiga kиргунча muntazam uyingizga tashrif buyuradi. Homilador bo'lганингизда имкони борича ertaroq, lekin 28-haftasidan kech bo'lмаган muddatda unga a'zo bo'lishingiz mumkin.

NYC Jinsiy salomatlik klinikasi (NYC Sexual Health Clinics) jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar (sexually transmitted infections, STI), jumladan, OITSga qarshi arzon yoki bepul xizmatlarni taqdim etadi. 12 va undan katta yoshdagilar immigratsiya maqomidan qat'i nazar klinika xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ota-onha roziligi talab etilmaydi.

Masofaviy tibbiy xizmatlar uchun NYC JInsiy salomatlik klinikasi (NYC Sexual Health Clinic) ishonch telefoniga (347-396-7959) murojaat qiling. Nyu York shtatida abort qildirish xavfsiz va qonuniy hisoblanadi. Dushanbadan shanbagacha 8:00–20:00 orasida 877-692-2482 raqamidagi Abortdan foydalanish habi (Abortion Access Hub) bilan bog'lanish orqali abort provayderi va boshqa qo'llab-quvvatlovchi resurslar haqida bilib olishingiz mumkin.

## IDNYC

Bepul IDNYC ariza berish uchun bugun uchrashuv belgilang. **311ga telefon qiling** va "IDNYC" deb aytin yoki <https://www.nyc.gov/site/idnyc/index.page> saytiga tashrif buyuring.

IDNYC 10 yosh va undan kattalar Nyu York aholisi uchun bepul identifikatsiya kartasi. u ko'plab ajoyib imtiyozlarni taqdim etadi. IDNYC ishlashga ruxsatnomasi **bermaydi**. U sayohat yoki Nyu York shahridan tashqarida ishlatalmaydi. IDNYC immigratsiya maqomiga ta'sir qilmaydi. IDNYC immigratsiya maqomi ma'lumotlarini to'plamaydi va arizachilarning ma'lumotlar maxfiy saqlanadi. Shahar IDNYC ma'lumotlarini qonunda mavjud maksimal darajada muhofaza qiladi.

## OZIQ-OVQAT OMBORLARI



Nyu York shahrida muayyan joylarda ehtiyojmandlarga bepul oziq-ovqat taqdim etiladi. Sizga yaqin joyda oziq-ovqat omborini topish uchun yuqorida QR kodni skanerlang yoki <https://finder.nyc.gov/foodhelp/> manziliga kiring.

# ISH VA MOLIYA

## IMMIGRANT ISHCHILAR

Nyu York shahrida ishchilarni muhofaza qiladigan ko'plab mehnat va bandlikka oid qonunlar mavjud. Bu qonunlar immigratsion maqomidan qat'i nazar barcha ishchilarga tatbiq qilinadi. Batafsil ma'lumotni bu yerdan oling:

<https://www.nyc.gov/site/dca/workers/workersrights/know-your-worker-rights.page>.

### Immigrantlar uchun iste'molchi himoyasi bo'yicha maslahatlar

Immigrantlar ish joyida va bozorda o'ziga xos muammolarga duch keladi. Huquqlaringiz va yordam uchun qayerga murojaat qilish haqida bilib oling: <https://www.nyc.gov/site/dca/consumers/immigrants.page>.

**Workforce1** Nyu Yorkning yangi kelgan aholisiga ishslashda ruxsatnomani tayyorlash, Nyu York shahri bo'ylab ishlar va iqtisodiyotning barcha sohasi bilan bog'lanishga yordam beradi. <https://www.nyc.gov/site/sbs/careers/virtual-wf1cc.page> manziliga kiring

**NYC moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish markazlari** bepul yuzma-yuz moliyaviy konsultatsiya xizmatlarini taklif qiladi. Xizmat maxfiy saqlanadi va professional maslahatchilarimiz bir nechta tilda so'zlashadi. Uchrashuv belgilash uchun shu yerga kiring: <https://www.nyc.gov/site/dca/consumers/get-free-financial-counseling.page>. Moliyaviy imkoniyatlar borasida ma'lumotlar uchun 311 raqamiga murojaat qiling.

### NYC bepul soliq tayyorlovi (NYC Free Tax Prep)

Agar 2023-yilda 85 000\$ yoki undan kam daromad olgan bo'lsangiz, deklaratsiya qilish va mablag'laringizni qaytarib olish uchun NYC Free Tax Prep xizmatidan foydalaning. Batafsil ma'lumot uchun: <https://www.nyc.gov/site/dca/consumers/file-your-taxes.page>.

**Shaxsiy soliq to'lovchining identifikatsion raqami (Individual Taxpayer Identification Number, ITIN)** Ichki daromad xizmati (Internal Revenue Service, IRS) tomonidan federal soliqlar hisobotini berish va to'lash uchun chiqarilgan soliq deklaratsiya raqami.

Bu odatda AQSH fuqarolari bo'limgan shaxslar AQSHda daromad olgani uchun AQSH soliq majburiyatiga ega bo'lganda tatbiq qilinadi.

Agar quyidagilar bo'lsa, ITIN uchun ariza bering:

- Siz Ijtimoiy himoya raqamini olishga mos kelmaysiz
- Siz AQSH hududida daromad olgansiz va
- Soliq to'lashingiz kerak.

ITIN quyidagilarni taqdim etmaydi:

- Shaxs AQSHda ishslashiga ruxsat
- Ijtimoiy himoya yoki Medicare imtiyozlarini olishga imkoniyat
- Shaxsning immigratsion maqomini o'zgartirish.

Batafsil ma'lumot internetda mavjud: <https://www.nyc.gov/site/dca/consumers/file-your-taxes-itin.page>.

# IMMIGRATSIYADA HUQUQIY YORDAM

## MANZIL MA'LUMOTLARINGIZ VAQTIDA YANGILANIB TURSIN!

Agar boshipana, ishslashga ruxsat yoki boshqa immigratsiya imtiyozidan foydalanish uchun ariza bergen bo'lsangiz, o'n (10) kun ichida USCIS bilan manzilingizni o'zgartirishingiz kerak. Ishingiz holatiga qarab manzilingizni Immigratsion tekshiruv ijro idorasi (Executive Office of Immigration Review, EOIR), AQSH immigratsiya va bojxona xizmati (U.S. Immigration and Customs Enforcement, ICE) va balki AQSH fuqarolik va immigratsiya xizmatlari (United States Citizenship and Immigration Services, USCIS) bilan manzilingizni o'zgartirishingiz kerak.

**EOIR** manzilingizni shaxsan yoki email orqali elektron o'zgartirishingiz mumkin.

<https://respondentaccess.eoir.justice.gov/en/forms/eoir33ic/> manziliga kiring. Hisobga oling: Milliy xavfsizlik departamenti (Department of Homeland Security) manzil o'zgarishi shaklining nusxasini va EOIR xizmat dalilini yuborishingiz kerak (shaxsan, elektron yoki pochta orqali)

EOIR Automated System yordamida sud majlisи holatini telefonda tekshiring: 1-800-898-7180 raqamiga murojaat qiling yoki <https://acis.eoir.justice.gov/en/> manziliga kiring. EOIR Avtomatik ish haqida ma'lumot berish tizimi ishingiz bo'yicha olib tashlash orderi berilganini xabar berishi bilan darhol advokatga murojaat qiling. Agar advokatingiz bo'limasa, dushanbadan jumagacha 9:00–18:00 orasida 1-800-354-0365 raqamidagi MOIA Immigratsion huquqiy yordam ishonch telefoniga (MOIA Immigration Legal Support Hotline) murojaat qiling yoki 311 raqamiga telefon qilib "ActionNYC" deb ayting.

Agar sizarizangizni USCIS portalir orqali **USCIS onlayn** yuborgan bo'lsangiz, manzilingizni onlayn o'zgartirishingiz mumkin. <https://myaccount.uscis.gov/> manziliga kiring.

**Pochta orqali USCIS arizangizni** yuborgan bo'lsangiz, manzilingizni onlayn o'zgartirishingiz mumkin. <https://egov.uscis.gov/coa/displayCOAForm.do> manziliga kiring.

Agar ICE tekshiruvlari bo'lsa, ICE bilan manzilingizni onlayn o'zgartirishingiz mumkin. <https://onlinechangeofaddress.ice.gov/ooca> manziliga kiring.

## BOSHPANA IZLOVCHILAR UCHUN HUQUQIY MA'LUMOT

Ariza yozishda yordam kerak bo'lsa, **boshpana masalalari bo'yicha xodimdan so'rang:**

- Boshpana
- Ishslashga ruxsat

- Vaqtinchalik himoya maqomi

Immigratsiya va fuqarolik haqida ma'lumot: <https://www.nyc.gov/site/immigrants/index.page>.

Immigratsiya qonuniy skrininglari, konsultatsiya, manzilni o'zgartirish va joyni o'zgartirish va immigratsiya arizalari, shular bilan cheklanmagan holda boshpana bo'yicha yordam beradigan tashkilotlarni toping: <https://www.nyc.gov/site/immigrants/legal-resources/legal-information-for-asylum-seekers.page>

MOIA Immigratsiyada huquqiy yordam ishonch telefoni (MOIA Immigration Legal Support Hotline) (1-800-354-0365) dushanbadan jumagacha 9:00–18:00 ma'lumot va shahar moliyalashtiradigan huquqiy xizmat dasturlariga yo'llanmalar beradi.

Bepul xizmat ko'rsatadigan advokatlar ro'yxatini topish uchun Immigratsiya advokatlari tarmog'iga (Immigration Advocates Network) qarang yoki New Americans 1-800-566-7636 ishonch telefoniga murojaat qiling. Yoki katalogni internetdan toping: <https://www.immigrationadvocates.org/legaldirectory/search?state=NY>.

## UY-JOY

### BOSHPANA QIDIRISH BO'YICHA AYRIM MASLAHATLAR

#### Ko'chmas mulk dasturlari va veb-saytlari

Bu yerda Nyu York aholisiga ijara yoki xarid qilish uchun uy-joy topishga yordam beradigan muntazam yangilanuvchi va o'zgaruvchan veb-saytlar va smartfon ilovalari tarmog'i mavjud. Bir nechtasini sinab ko'rish maqsadga muvofiq – bitta ilovadan barcha ma'lumotlarni topish qiyin. HPD biror muayyan kompaniyani tavsiya qilmaydi, lekin veb yoki telefon ilovalar do'konida, masalan, "NYC rentals" deb yozing, bu ko'plab variantlarni taqdim etishi mumkin. Alovida ro'yxatlar bo'sh uylarni reklama qilishi mumkin, unda tizimga kirishingiz yoki mavjud xonadonni ko'rish uchun tashrif buyurishingiz mumkin.

#### Og'zaki

Ko'plab Nyu York aholisi uylarini og'zaki suhabatlar orqali, asosan do'stlari, qarindoshlari va hamkasblari orqali topadi. Agar xonodon qidirayotgan bo'lsangiz, hammadan qidirayotgan narsangiz haqida so'rang.

#### Tasniflangan reklamalar

Tasniflangan e'londalar odamlar sotib olish, sotish yoki ish yoki xizmatlar kabilarga oid e'londalar beradigan qisqa reklamalar. Ular odatda gazetalar, onlayn veb-saytlar yoki hatto e'londalar peshtaxtasidan topish mumkin.

#### Aylanib chiqish

Bir qancha ijarchilar xonadonlarini "For Rent (Ijaraga beriladi)" yozuvini ko'rib topadi. Yashashni istagan mahallaga borib, atrofni kuzatishingiz mumkin.

#### Hamjamiyat guruhlari

Siz ora-orada uy-joyni mahalliy hukumat idoralari yokimahalladagi mavjud uy-joylar haqida

ma'lumot yuritadigan hamjamiyat guruqlaridan topishingiz mumkin. Hududdagi mahalliy notijorat guruqlarining (nuroniyalar markazlari, hamjamiyat xizmatlari agentliklari va h.k.) ayrimlarini tekshiring. Ro'yxatlar yoki e'lon peshtaxtalari mavjud ekanini tekshiring.

Ijarachi sifatida huquqlaringiz haqida batafsil ma'lumot uchun <https://www.nyc.gov/content/tenantprotection/pages/tenant-protection-laws> manziliga kiring. Nyu Yorkda uy-joy borasida savol-javoblar uchun Ijara bo'yicha ko'rsatmalar kengashi (Rent Guidelines Board) saytiga kiring:<https://rentguidelinesboard.cityofnewyork.us/resources/faqs/>.

Nyu York shahrida xonadonlar qidirish haqida ma'lumotlar uchun kiring:  
<https://rentguidelinesboard.cityofnewyork.us/resources/apartment-hunting/>.

Ijara bo'yicha firibgarlardan ehtirot bo'ling. Ayrim shaxslar yoki guruqlar uy-joyni taklif qiladi, pulni olishi bilan g'oyib bo'ladi. Bu haqiqat emasdek tuyulishi mumkin, lekin shunday. Batafsil ma'lumot uchun

[https://www.nyc.gov/assets/nypd/downloads/pdf/crime\\_prevention/NYPDcptips\\_RentalScam.pdf](https://www.nyc.gov/assets/nypd/downloads/pdf/crime_prevention/NYPDcptips_RentalScam.pdf) manziliga kiring.

**Ushbu boshlang'ich qo'llanmada berilgan  
ma'lumotlar bo'yicha savollaringiz bo'lsa, xodimdan  
boshpuna haqida so'rang.**

# **BU YERDA NYU YORK SHAHRIDA QANDAY HARAKATLANISH BORASIDA MA'LUMOTLAR BILAN BIR QANCHА FOYDALI VEB SAYTLARNI TOPISHINGIZ MUMKIN:**

## **ELCHIXONA YOKI KONSULLIGINGIZNI TOPISH**

Shtat departamentida Elchixonalar va Konsulliklar kontakt ma'lumotlarini

<https://travel.state.gov/content/travel/en/consularnotification/ConsularNotificationandAccess.html> manzilidan oling.

## **IMMIGRATSİYA MASALALARI BO'YICHA MER IDORASI (THE MAYOR'S OFFICE OF IMMIGRANT AFFAIRS, MOIA)**

MOIA shahar bo'ylab va hamjamiyat resurslaridan foydalanayotganda sizga yordam beradi. Batafsil ma'lumot uchun 212-788-7654 AskMOIA ishonch telefoniga (AskMOIA hotline) dushanbadan jumagacha 9:00–17:00 orasida telefon qiling yoki [AskMOIA@cityhall.nyc.gov](mailto:AskMOIA@cityhall.nyc.gov) manziliga email yuboring.

Naqd pulda yordam va boshqa resurslar haqida onlayn ma'lumot olishingiz mumkin:  
<https://www.nyc.gov/site/immigrants/city-services/cash-assistance.page>.

## **LGBTQ+ RESURS QO'LLANMASI:**

<https://comptroller.nyc.gov/services/for-the-public/lgbtq-guide/overview/>.

## **OILADAGI VA JINSGA QARATILGAN ZO'RAVONLIKKA BARHAM BERISH BO'YICHA MER IDORASI (MAYOR'S OFFICE TO END DOMESTIC AND GENDER-BASED VIOLENCE, ENDGBV)**

Agar siz oiladagi zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, kattalar zo'ravonligi, uchrashuvlarda suuiste'mol, ta'qib, jinsiy zo'ravonlik, odam savdosidan jabrlangan yoki jabrlangan deb guman qilingan bo'lsangiz, ma'lumot va yordam uchun <https://www.nyc.gov/site/ocdv/get-help/covid-19-update.page> veb saytiga murojaat qiling.

## **NYU YORK SHAHRI INSON HUQUQLARI BO'YICHA KOMİSSIYA:**

Nyu York shahrida amaldagi yoki qabul qilingan immigratsion maqomingiz yoki milliy kelib chiqishingiz asosida kansitilmaysiz:

- Bandlik, uy-joy va jamoat joylari, masalan, do'konlar, shifoxonalar va kinoteatrlar

Immigratsion maqomingizdan qat'i nazar huquqlaringiz mavjud. Batafsil ma'lumot bu yerda:  
<https://www.nyc.gov/site/cchr/law/protections-based-on-immigration-status-and-national-origin-en.page>.

## **NYU YORK SHTATI OFFICE OF NEW AMERICANS (YANGI AMERIKALIKLAR IDORASI):**

Hamjamiyat ta'minotchilarining shtat bo'ylab tarmog'ida mavjud xizmatlar haqida ma'lumotlar uchun quyidagi saytga kiring: [https://dos.ny.gov/office-new-americans?utm\\_medium=301&utm\\_source=www.newamericans.ny.gov](https://dos.ny.gov/office-new-americans?utm_medium=301&utm_source=www.newamericans.ny.gov).

## **JAMOAT KUTUBXONALARI**

Nyu York shahri bo'ylab bepul jamoat kutubxonalari bor. Joylar va ish soatlari haqida ma'lumotlarni bu yerdan toping:

<https://www.nypl.org/>

<https://www.bklynlibrary.org/>

<https://www.queenslibrary.org/>